

Vatan himoyasi - muqaddas burch

Ushbu qutlug' ayyom tom ma'nodagi umumxalq bayramiga, azaldan xalqimizga xos bo'lgan vatanparvarlik, mardlik va jasurlik kabi yuksak fazilatlar timsoliga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.



14-yanvar erta tongdan Institut Yoshlar yetakchisi jamoasi institutda ta'lim olib kelayotgan talabalarni hamda professor-o'qituvchilarni bayram bilan tabriklash maqsadida, institutimizning asosiy kirish qismida bayram shukuhini yaratishdi.



Faol talaba qizlarimiz yigitlarni bayram bilan qutlashda noodatiy yondashib, barcha qizlarimiz harbiy kiyimlarda, chiroyli ko'rinishda ishtirok etishdi. Albatta, bunday Fleshmoblar talabalarning kayfiyatini ko'tarishga, bayramona kayfiyat ulashishiga xizmat qiladi.



E'tiborga molik jihati, nafaqat talabalar barcha prorektorlar, Fakultet dekanlari, jamoat tashkilotlarining ma'sullarini ham ushbu bayram bilan qutlab barcha Ustozlarga bayram kayfiyati ulashildi. Hurmatli Ustozlar va qadrlil talabalar bayram muborak bo'lsin.



TIQXMMI matbuot xizmati